



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 10 - iyun

181-9-0-Q/24

Sirdaryo viloyati hokimligi

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-sonli qarori ijrosi haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6 va 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganligi;

qonun bilan o'rnatilgan talablar va mexanizmlarni davlat organlari va tashkilotlarida samarali joriy etish, bu jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash hamda ular uchun zarur tushuntirish ishlarini olib borish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "Yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini tashkil etish bo‘yicha viloyat hokimligi komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi doirasida viloyatda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining birinchi o‘rnbosari (A.Umarov) tegishli mutasaddilarni jalb qilgan holda joriy yilning 5-iyul kuniga qadar tegishli dastur qabul qilinishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirish viloyat hokimining birinchi o‘rnbosari A.Umarov zimmasiga yuklansin.

**Sirdaryo viloyati hokimi**



**A.Maxmudaliyev**

Sirdaryo viloyat hokimining  
2024-yil 10-iyundagi  
181-9-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni  
ijrosini tashkil etish bo‘yicha viloyat hokimligi komissiyasi  
TARKIBI**

T/p	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	UMAROV Abduraxim Abdulkamidovich	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2.	TASHBAYEV Dilmurod Xolmurodovich	Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari, komissiya raisining o‘rinbosari
<b>Komissiya a’zolari:</b>		
3.	MIRZAYEV Akmal Arziyevich	Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
4.	IBADULLAYEV Voxid Azizovich	Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
5.	XUDJAMOV Bobur Alisher o‘g‘li	Viloyat hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i
6.	ISMATOV Bekzod Bazarbayevich	Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
7.	ISAKULOV Shoxrux Norqulovich	Viloyat hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
8.	TOJIBAYEVA Nargiza Keldibekovna	Viloyat hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i
9.	MUMINOV Irkin Akmalovich	Viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari
10.	AZIZOV Abdulla Aliyevich	Viloyat hokimligi yuridik xizmati boshlig‘i
11.	DJABBAROV G‘ayrat Nusratullayevich	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i
12.	XODJIYEV Subanjon Azamkulovich	Viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu‘basi mudiri

**Izoh:** Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Sirdaryo viloyat hokimining  
2024-yil 10-iyundagi  
181-9-0-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi doirasida viloyatda 2024-yilda  
amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan  
“Yo‘l xaritasi”**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas’ullar
1.	Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o‘rnativishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan seminar-trening o‘tkazish va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.	2024-yil iyun	Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Z.Mirrahimov), viloyat Adliya boshqarmasi (D.Zoxidov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari

2.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash va natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish hamda aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash; Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	2024-yil 25-iyul	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>
3.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalari bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.</p>	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	2024-yil iyul	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>

4.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridan ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil (2 yil) ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalari bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.</p>	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridan ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil (2 yil) ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash; Aniqlangan holatlar bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.</p>	2024-yil iyul	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>
5.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat Soliq boshqarmasi (U.Xatamov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>
6.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridan ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralalararo komissiyasiga taqdim qilish.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish choralarini ko‘rish.</p>	<p>Axborot-tahliliy ma’lumotnomasi</p> <p>Amaliy chora-tadbirlar</p>	<p>2024-yil iyul</p> <p>2024-yil oktabr</p>	<p>Davlat organlari va tashkilotlari</p> <p>Respublika idoralalararo komissiyasi tomonidan tuziladigan ishchi guruh</p>

7.	<p>Xodim o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalgalashirayotgan viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarining nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	<p>Axborot-tahliliy ma’lumotnomalar</p> <p>Amaliy chora-tadbirlar</p>	<p>2024-yil iyul</p> <p>2024-yil oktabr</p>	<p>Davlat organlari va tashkilotlari</p> <p>Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tuziladigan ishchi guruh</p>
8.	<p>Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	<p>Axborot-tahliliy ma’lumotnomalar</p> <p>Amaliy chora-tadbirlar</p>	<p>2024-yil iyul</p> <p>2024-yil oktabr</p>	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat Adliya boshqarmasi (D.Zoxidov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>
9.	<p>Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berish va ularni tartibga solish tizimi joriy etilmagan (Viloyat hokimligi bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridagi) holatlarni tahlil qilish.</p>	<p>Axborot-tahliliy ma’lumotnomalar</p>	<p>2024-yil avgust</p>	<p>Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat Adliya boshqarmasi (D.Zoxidov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari</p>

10.	Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishning elektron tizimi yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganish hamda bunday tizimni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish.	Axborot-tahliliy ma’lumotnomasi	2024-yil sentabr	Raqamli texnologiyalar boshqarmasi (A.Babayev), viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat Adliya boshqarmasi (D.Zoxidov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari
11.	Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning tasdiqlangan namunaviy shakllarini viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari rasmiy veb-saytlariga joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil sentabr	Davlat organlari va tashkilotlari
12.	Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlari ish stolida eslatma sifatida foydalanishi uchun manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko‘riladigan choralar bo‘yicha illyustrativ tarqatma materiallarni ishlab chiqish hamda tarqatish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil avgust	Viloyat Adliya boshqarmasi (D.Zoxidov), viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari

13.	Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarining manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Z.Mirrahimov), viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu'basi (S.Xodjiyev), tuman (shahar) hokimliklari
-----	---	------------------------	--------------------	---